

OQ'UVCHI YOSHLARDA EKOLOGIK MA'DANIYATNI SHAKILLANTIRISHDA
IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING O'RNI

Xolmirzayeva Aziza Abdilbase qizi

*JDPU "Zoologiya va anatomiya" kafedrsi o'qituvchisi
azizaxolmirzayeva95@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchi yoshlarning ekologik madaniyatni shakillantirishda Imom Al-Buhoriyning hadislarining o'rni va ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Hadis, tabiat, o'simliklar, hayvonlar, ekologik ma'daniyat, jamiyat, muhofaza.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yilning 14-15 aprel kunlari Samarqand viloyatiga qilgan tashrifi chog'ida Imom Buxoriy yodgorlik majmui qoshida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini qurish taklifini bildirib, shunday degan edi: "Buyuk mutafakkir bobomiz, barcha muhaddislar peshvosi Imom Buxoriy mangu qo'nim topgan ushbu maskanda o'ziga xos ma'naviy-ruhiy muhit mavjud. Majmuaga ziyoratga kelgan odam bu markazga ham kirib, o'ziga katta ozuqa olsin, bobolarimiz hikmatlaridan o'rganib ketsin. Shunda ularning qalbida ulug' ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg'usi rivoj topadi, ayni paytda shunday buyuk zotlarning avlodi mas'uliyatini his etadi". Demak, hadislar mazmunan har bir mo'minning ishonchini, e'tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan birga insonni ma'naviy kamolotga da'vat etadi. Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba bo'lib hisoblanadi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo'lib, ushbu fazilatlar sirasiga o'zgalarga mehr-oqibat ko'rsatish, saxiylik, ochiq ko'ngillik, ota-ona, kattalar, va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo'lish, ularga g'amxo'rlik qilish, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, do'stlik, oliyjanoblik, rahm-shavqatlilik, kamtarlik, rostgo'ylik va shu bilan birgalikda tabiat ne'matlarini asrab avaylashlik kabi xislatlar kiritilgan.

Insoniyat yaralibdiki tabiat bilan chambarchas bog'liqlikda hayot kechirib keladi. Tabiatning mo'jizakorligi insonlarni har doim o'ziga jalb qiladi. Nafaqat go'zalligi balki inson hayoti uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarini tabiatdan oladi. Ba'zida bu oddiy jarayonlar yodimizdan ko'tarilib qoladi. Ona tabiatga shavfqatsizlarcha munosabatda bo'lamiz. Buning natijasida esa yana o'zimiz qiynalamiz. Tabiat ham bizdan o'ch olishi mumkinligi yodimizdan chiqadi. Bugungi kunga kelib insonlarni qiynab kelayotgan eng og'ir savollardan biri bu ekologik muammolardir. Xo'sh nega bunday? Chunki insoniyatning tabiatga aralashuvi me'yoridan haddan

ziyod ortib ketdi. Insonlar ana shu me'yorni unutib qo'ydilar, tabiatning ham aks javob qaytarish xususiyati bor ekanligini bila turib tan olgilari kelmadi. Borliqdagi har bir narsa o'zining chegarasi va me'yoriga ega. Ya'ni inson uchun kerakli bo'lgan kislarodning me'yori buzilib, kamayib ketsa, atmosferada gazlar miqdori oshib ketadi. Agarda kislorod miqdori ortib ketsa, yer sirtidagi harorat eng yuqori darajaga ko'tariladi. Huddi yer shari pechga, odamlar esa uning ichidagi qovurdoqqa aylanadi.. Bu yakun esa odamzod uchun intiho. Bu bir misol bunday misollardan ko'plab keltirish mumkin. Hozirgi kundagi ekologik muammolar global muamolarga aylanib bormoqda.. Bularga juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin, Global isish, Antarktida muzlarini erishi va buning oqibatida suv toshqinlarini ko'payishi, azon qatlamini yemirilishi, ko'plab yong'inlar, foydalanish uchun yaroqli bo'lgan chuchuk suv miqdorining kamayishi. Bunday muammolar insoniyatga tobora ko'proq xavf solib borayotgan bir davrda, ularga yechim topish dunyo aholisining, barchamizning, yelkamizdagi burch va mas'uliyatdir. Biz bunday holatlarda shunchaki ko'z yuma olmaymiz. Bugungi kunda butun dunyo olimlari ekologik muammolarni bartaraf qilishga kurashib kelishmoqda. Bu muammolarga kurashishning eng muqobil yo'li insonlar o'rtasida ekologik ma'daniyatni shakillantirishdir, ayniqsa yosh avlod o'rtasida.

Yosh avlod o'rtasida ekologik ma'daniyatni shakillantirishda hadis olamining o'rni alohida. Hadislarni o'rganish orqali yoshlar o'rtasida nafaqat ekologik ma'daniyatni shakillantirishga shu bilan birgalikda ularni komillik sari yetaklash mumkin.

Bizga ma'lumki, islom dini ezgulikka asoslangan bo'lib, insonlarni halollikka, poklikka, tabiatga nisbatan odilona, oqilona munosabatda bo'lishga undaydi. Hadislarda Payg'ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Pok bo'linglar, zero Islom pok dindir va faqat pok kishilar jannatga kirur" (hadislar olamidani). Islom dini odamlarni tabiatni asrashga, hayvonot va o'simlik dunyosiga zarar yetkazmaslikka, ne'matlardan foydalanganda isrof qilmaslikka, Alloh yaratgan tabiatdagi muvozanatni va jipslikni buzmagani holda ulardan to'g'ri foydalanishga, ona tabiatga mehr-muhabbatli bo'lishga va tabiatdan oqilona foydalanishga chaqiradi.

Ko'rinib turibdiki, atrof-muhitni toza saqlash, tabiatni muhofaza qilish, Alloh in'om etgan hayvonot va nabotot olami inson manfaatlariga xizmat qiladi. Biz buni to'g'ri anglagan holda yosh avlodni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani ado etishda birinchi navbatda ma'naviy qadriyatlarimizda ilgari surilgan g'oyalarga tayanishimiz kerak. Bu g'oyalar yoshlarning tabiatga va hayvonot dunyosiga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirishda, umuman "tabiat-jamiyat-inson" tizimi munosabatlarini uyg'unlashtirishda beqiyos ahamiyatga ega. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, islom dini xalqimizning tabiatga munosabatini to'g'ri shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. U ona Vatanimizning tabiatini asrab-avaylashga bo'lgan mehr-muhabbatni kuchaytiradi va uni asrash orqali o'sib kelayotgan avlod uchun zarur hayotiy shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, "tabiat-jamiyat-inson"

tizimi munosabatlarini muvozanatga keltirishda, Alloh in'om etgan ne'matlardan oqilona foydalanish, tabiatni asrab-avaylashga oid islom dinidagi g'oyalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zero, ma'naviy qadriyatlarimiz asosida farzandlarimizning ongiga atrof-muhitni ozoda tutish, havoning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, mamlakatimiz tabiatini, hayvonot va o'simlik dunyosini asrash kabi tushunchalarni singdirib borishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017.
- 2.I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. – T.: 1998.
- 3.M.No'monov. Islomda tabiatga munosabat. –T.: Movarounnahr, 2011.
- 4.Sh.Otaboyev, S.Mirvaliyev va E.Tursunov – Ekologiyada madaniyat va ma'naviyat muammolari. –T.: Nishon noshir nashriyoti, 2009 y.
- 5.Sayyid Mubashshir Taroziy Sof tabiat dini / Tarj. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. – T.: Hilol-nashr, 2019.